

VOYAGA YETMAGAN SHAXSLAR HUQUQBUZARLIK SODIR ETISHIDA JINOYAT TARKIBIY ELEMENTI SUBYEKTIV TOMON MASALASI

Inomjonov Zaxiriddin Zafarjon o`g`li

Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Gumanitar fanlar” kafedrasi assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7197890>

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmagan shaxslarning huquqbazarlik sodir etishi, buning sabablari, jinoyatni amalga oshirishda subyektiv tomon elementining ahamiyati, jinoyatga qarshi kurashish masalasi yoritilgan.

Kalit so`zlar: qonun, jinoyat, subyekt, obyekt, subyektiv tomon, obyektiv tomon, aqli rasolik, qasd, kodeks, fuqaro.

СУБЬЕКТИВНЫЙ ВОПРОС СОСТАВНОГО ЭЛЕМЕНТА ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРИ СОВЕРШЕНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ

Аннотация. В данной статье рассматривается преступление, совершенное несовершеннолетними, причины этого, значение субъективного элемента в совершении преступления, а также вопрос борьбы с преступностью.

Ключевые слова: закон, преступление, субъект, объект, субъективная сторона, объективная сторона, вменяемость, намерение, код, гражданин.

SUBJECTIVE QUESTION OF THE CONSTITUENT ELEMENT OF A CRIME WHEN A CRIME IS COMMITTED BY MINORS

Abstract. This article deals with the crime committed by minors, the reasons for this, the importance of the subjective element in the commission of the crime, and the issue of combating crime.

Keywords: law, crime, subject, object, subjective side, objective side, sanity, intention, code, citizen.

KIRISH

Dunyo taraqqiy etib borgani sayin unda turli o`zgarishlar, hodisalar ko`payib boradi. Shaxslar esa, o`zlarini jamiyatning bir bo`lagi sifatida xis qilishlari, unda emin erkin yashay olishlari uchun turli qoidalar, normalar yaratiladi. Dunyo keng davlatlar ko`p ammo, xar bir davlatning, har bir jamiyatning o`z qonun qoidalari bo`ladi. Insonlar agar shu qonun qoidalarga og`ishmay, ularni buzmasdan rioya etsalar o`zlarining buyuk masqsadi bo`lmish “Fuqarolik jamiyatini” qura oladilar.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Jamiyatda davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar va boshqa huquqiy normalarni barcha xalq ongli va ixtiyoriy ravishda bajaradi. Chunki bularda xalqning erki va irodasi ifodalanadi. Ammo, turli davrlarda har xil jamiyat va davlatlarda bo`lgani singari, qonun buzlishi xollari uchrab turadi. Biz esa uni huquqbazarlik deb ataymiz. Huquqbazarlik deb kishilarning huquqqa qarshı qaratilgan harakat va harakatsizligi bo`lib, buning natijasida ayb sodir qilinadi, ular huquq sohalarining tegishliligiga qarab tegishli jazo chorralari belgilab javob berishi kerak. Huquqbazarlik natijasida kishilarning ayblari bo`lishi kerak. Agar shaxs huquqni bo`zgan bo`lsa, bunda uning aybi bo`lmasa, uni javobgarlikka tortib bo`lmaydi. Masalan; bemorning chaqirig`i bo`yicha vrachning kasalligi sababli kelmasligi natijasida bemorning vafot etishi. Bu holda vrachning aybi yo`q.

Shaxslar har bir harakati uchun javob beradilar. Ammo qonunchiligmzga muvofiq har bir harakatni sodir etish yoshi belgilab qo`yilgan. Shuningdek huquqiy normalarga muvofiq huquqbazarlikni to`rt turga bo`lamiz:

- * *Jinoiy huquqbazarlik;*
- * *Fuqarolik huquqbazarlik;*

- * *Ma'muriy huquqbazarlik;*
- * *Intizomiy huquqbazarlik.*

Biron bir aybli ijtimoiy qilmish Jinoiy huquqbazarlik deb e'tirof etish uchun ushbu harakat yoki harakatsizlik tarkibida jinoyat elementlari bo`lishi kerak. Jinoyat qonunchiligiga ko`ra huquqbazarlikning to`rtta tarkibiy elemnti mavjud:

- 1. *Jinoyat subyekti;*
- 2. *Jinoyat obyekti;*
- 3. *Jinoyatning subyektiv tomoni;*
- 4. *Jinoyatning obyektiv tomoni.*

TADQIQOT NATIJALARI

Har bir huquqbazar shaxsni javobgarlikka tortish uchun shu to`rtta tarkib bo`lishi kerak. Agar shulardan bittasi bo`lmasa huquqbuzarni javobgarlikka tortib bo`lmaydi. U voyaga yetgan yoki, voyaga yetmaganidan qat`iy nazar shu to`rtala element ishtirok etishi shart. Huquqbazarlikning sub'ekti bo`lib huquqbazarlikni sodir qilgan yuridik va jismoniy shaxslar xisoblanadi. Subyektlarning xususiyatlari huquqbazarlikning turiga bog`liq bo`ladi. Masalan, jinoiy va ma'muriy huquqning subyektlari bo`lib faqat shaxslar xisoblanadi. Huquqbazarlikning oby'ekti bu kishilar tomonidan huquq normalari bilan tartibga solinadigan va qo`riqlanadigan turli ijtimoiy munosabatlarning bo`zilishidir. Bu ijtimoiy munosabatlar O`zbekistonning ijtimoiy yoki davlat tuzimini, davlat xo`jalik tuzimi, turli mulk shakllari, mehnat qilish, siyosiy, tabiatni muhofaza qilish, shaxs va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdir. Huquq bilan qo`rilanadigan bu ijtimoiy munosabatlar shaxslar tomonidan buzilib, moddiy va ma`naviy zarar yetkaziladi. Huquqbazarlikning ob'yektiv tomoni bu shaxsning harakat va harakatsizligi natijasida huquqning buzilishidir. Kishilarning harakat va harakatsizligi huquqqa qarashli bo`lib, uning jamiyat uchun ijtimoiy munosabatlar buzilib jamiyatga moddiy va madaniy zarar yetkazadi. Huquqbazar shaxsning qilmishi bilan sodir bo`lgan oqibat o`rtasida sababli boglanish bo`lib, buning natijasida ayb sodir qilinishi va huquqbazar tegishli huquq sohalari bo`yicha o`z qilmishi uchun jazo choralarini oladi. Ob'ektiv tomonning elementlari bo`lib qo`yidagilar hisoblanadi:

Huquqqa qarshi qilmish; Huquqqa qarshi zararning oqibati; Huquqqa qarshi qilmish bilan zararli oqibat o`rtasidagi sababiy bog`liqliklar; joyi, vaqt, usili va muxit.

Endi esa, biz muhokama qilayotgan masala bu Jinoyatning subyektiv tomoni xisoblanadi. Huquqbazarlikning sub'ekтив tomoni bu shaxsning (jismoniy va yuridik) huquqqa karishi qaratilgan xarakat yoki xarakatsizlikka va ulardan kelib chiqadigan xafvli qilmishga nisbatan psixik ongli ko`rinishdagi munosabatidir. huquqbazarlik subyektiv tomonining zaruriy belgisi aybdir. Ayb - huquqbuzarning huquqqa xilof xati - harakatiga va ularning ijtimoiy xafvli oqibatiga nisbatan yoki extiyotsizlik shaklidagi munosabatadir.

MUHOKAMA

Huquqbazarlikning asosiy takibiy elementlaridan biri bu Subyektiv tomon xisoblanadi. Subyektiv tomon shaxsni jinoyatga undaydi unda qasd tuyg`usini keltirib chiqaradi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, voyaga yetmagan aqli raso shaxs huquqbazarlik sodir etishida subyektiv tomon muhim ro`l o`ynaydi. Voyaga yetgan aqli raso shaxsda motivni paydo bo`lishida asosan o`zi muhim ro`l o`ynagan bo`lsa, Voyaga yetmagan shaxslarning huquqbazarlik sodir etishida tashqi ta`sir odatda ustuvor xisoblanadi. Avvalo voyaga yetmagan

shaxs kim? O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko`ra hamda Bola huquqlari tog`risidagi konvensiyaga muvofiq 18 yoshga yetmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi. Demakki, u Voyaga yetmagan shaxs deb e'tirof etiladi. Biroq davlatimiz qonunchiligiga ko`ra hamda Fuqarolik kodeksiga muvofiq erta voyaga yetish ham mumkin. Buning uchun shaxs erta turmush qurgan bo`lishi yoki, tadbirkorlik firmasini yurgizayotgan bo`lishi inobatga olinadi. Jinoiy qonunchilikka ko`ra esa javobgarlikka tortish yoshi sifatida 14 yosh belgilab qo`yilgan, bunda jinoyatning ijtimoiy xavfliligiga qarab qasddan odam o`ldirganlikda gumonlanib ushlanadi.

Voyaga yetmagan shaxsda Jinoyatning subyektiv tomoni bo`lib nima xisoblanadi? degan savol paydo bo`ladi. Avvalo, u hali to`la qonli voyaga yetmagan demak, avvalo unda har bir narsaga qiziqish paydo bo`ladi. Subyektiv tomonning asosi motiv xisoblanadi. Voyaga yetmagan shaxsdagi asosiy motiv sifatida qiziquvchanlik bo`ladi, bundan tashqari sharoit ham motivni keltirib chiqaradi oiladagi biroz qiyinchilik voyaga yetmagan shaxsni huquqbazarlik sodir etishiga olib kelishi mumkin. Jamiyatda hozirgi kunda ko`plab huquqbazarliklar voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilmoqda bunga sabab nima? buning bosh ildizi bormi? buni yo`q qilishni imkonli bormi? degan savollar paydo bo`ladi.

Fuqarolarning huquqiy madaniyatini pastligi va Axloqni inqirozga uchrashi. Uzoq yillar jamiyatda hukmron bo`lgan totalitar sovet davlatini axloqi o`rnida mamlakatimizda yangi axloq paydo bo`lmoqda. Bu yangi axloq umumbashariyati va sharq axloq normalarini o`z ichiga oladi. Lekin shu bilan birga bir tizimdan, ikkinchi tizimga o`tishda bo`shliq paydo boladi. Bu esa axloqni biroz inqirozga yuz tutishiga olib keldi. Alkogolizm va narkomaniya. Bu jamiyat uchun juda havfli bo`lib, aholi o`rtasida keng tarqalgan bo`lib ayniqla yoshlar buni istemol qilib turli huquqbazarliklar sodir qilmoqda. Sabablar izlasak ko`p topiladi.

Yuqorida illatlardan tashqari ayrim Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning fuqarolar bilan to`g`ri muomalada bo`lmasligi va buning natijasida fuqarolar tomonian organ hodimlari bilan tortishuvlar kelib chiqishi ham huquqbazarlikning asosiy sababi hisoblanadi. Bundan ko`rinib turibdiki, jinoyatni harakatga keltiruvchi kuch sifatida huquqbazarlikning subyektiv tomonini ko`rishimiz mumkin. Kasalni davolagandan uni oldini olgan yaxshi deydi dono xalqimiz. Biz ham huquqbazarlikka qarshi kurashish uchun avvalo voyaga yetmagan yosh avlodga to`g`ri ta`lim tarbiya berishimiz kerak. Ularda huquqbazarlikka olib boruvchi motivlarni yoq qilish uchun;

- Yoshlikdan buyuk insonlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda o`zlar uchun malum bir shaxsni yo`l ko`rsatuvchi sifatida tanlashni o`rgatish lozim.
- Huquqbazarlik sodir qilgan shaxslarning hayoti ularning taqdiri keyinchalik qiyinchika to`la bo`lganligi jamiyatga qo`shilib ketishi oson bo`limganligini ifodalovchi videolavhalarni voyaga yetmagan bolalarga ko`rsatish
- Shaxsda huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun e`tiqoddan foydalanish lozim, xech bir din insonlarni yomonlik sari yetaklamaydi.

XULOSA

Uzoq asrlardan buyon insoniyatning buyuk mutaffakirlari jamiyatda huquqbazarlikning sababini o`rganish va uni tugatish bilan shug`ullanib keldi. Bu muommo bilan qadimgi Grek faylasufi Aflatun, Arastudan boshlab to hozirga qadar barcha sharq va g`arb donishmandlari shug`ullanib keldi. Bu haqda ayniqla jinoiy huquqbazarlikni oldini olish to`g`risida donishmandlar shunday deb kursatadi; «Aqli qonunchi jinoyat uchun jazolashga majbur bo`lgandan ko`ra jinoyatning oldini olishi uchun barcha chorani ko`radi.»

REFERENCES

1. Rustamboev M.X., Nikiforova Ye.N Huquqni muxofaza qiluvchi organlari: Darslik.-T.: TDYuI, 2005 yil.
2. Saydillyayv Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent “Yuridik adabiyotlar publish” 2021 y.
3. Jinoyat kodeksiga sharx M.X Rustamboyev
4. Davlat va huquq nazariyasi. darslik. Navoiy davlat pedagogika instituti 2020y.